

## **MAKTAB O'QUVCHILARIDA MAS'ULIYAT HISSINI SHAKLLANTIRISHDAGI IMKONIYATLAR.**

*Tojiyeva M.G.*

*Kimyo Toshkent xalqaro universiteti Samarqand filiali "Boshlang'ich ta'lim  
nazariyasi va metodikasi" magistri*

[Gulnozatojiyeva76@gmail.com](mailto:Gulnozatojiyeva76@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim xizmatlari, uning rivojlanish qolaversa, maktab o'quvchilarida mas'uliyat hissini shakllantirishdagi imkoniyatlari muallif tomonidan keng yoritib berilgan hamda taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** maktab ta'limi, o'quvchilar, ta'lim xizmatlari, mas'uliyat hissi.

Bola tarbiyasining asosida oiladagi insoniy munosabatlarning qaror topishi yotadi. Oilaviy munosabatlar – bu turli yoshdagi, turli jinsdagi, turli xarakterdagi kishilar o'rtasidagi, bilim darajasi turlicha bo'lgan va turli mutaxassislikka ega bo'lgan kishilar o'rtasidagi insoniy munosabatlarni sinab ko'rish va ularni mustahkamlash uchun o'ziga xos bir “maydon”dir. Agar insoniy munosabatlarga ongli va mas'uliyat bilan qaraladigan bo'lsa, ayni vaqtda mana shu oila insoniy munosabatlarning har tomonlama, ko'pqirrali va qiziqarli tajribaga ega ekanligini guvohi bo'lish mumkin” [1, 8] Oilada bolalarning mas'uliyat hissiga ega bo'lib voyaga yetishlari uchun ota-onalar yoki bola tarbiyasi uchun mas'ul shaxslar bu masalaga jiddiy e'tibor qaratishlar lozim. Bolalarda mas'uliyat hissi ayrim ma'naviy-axloqiy sifatlar, masalan, tartiblilik, ba'zi xatti-harakatlar uchun javobgarlik, intizomlilik va boshqalar bilan uyg'unlikda tarbiyalanadi. Bundan anglanadiki, oilaviy munosabatlar bolalarda mas'uliyat hissining tarbiyalanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli ota-onalar bolalarda mas'uliyat hissini shakllantirishga yordam beruvchi har bir omil, shart-sharoit va imkoniyatdan to'g'ri

foydalana olishlari kerak. “Bolalarda o‘qishga mas’uliyat hissini shakllantirish ota-onalardan izchillik bilan, sabr-toqat bilan muntazam ishlashni talab qiladigan murakkab va sermashaqqat jarayondir. Bolalarda ushbu xislatni shakllantirish bo‘yicha tarbiyaviy ishlarni boshlashdan avval ota-onalar bu masalani hal qilish yo‘lidagi muammo va maqsadlarni aniq tasavvur qilishlari lozim” [2]. Kichik maktab o‘quvchilarida o‘quv faoliyatiga bo‘lgan mas’uliyatni shakllantirish uchun oilada ham bir qator obyektiv va subyektiv shart-sharoitlarni yaratish maqsadga muvofiq. Manbalarda o‘quvchilarda mas’uliyat hissini shakllantirishga samarali ta’sir ko‘rsatuvchi obyektiv sharoitlar quyidagilardan iborat ekanligi aytiladi: “alohida xona, joy, mebel, kitoblar va boshqa kerakli narsalar”. Subyektiv omillar sirasiga esa “ota-onalar bolalardagi o‘qishga bo‘lgan mas’uliyat hissini shakllantirish uchun o‘z xatti-harakatlarini to‘g‘ri yo‘naltirishlari; o‘quvchi o‘qish va bilim olish uchun o‘zini yo‘naltirishi” kabilar kiritiladi [3, 35-36]. Bildirilgan fikrning ma’lum o‘rinlariga to‘la qo‘shilgan holda bir qadar yanglish mulohaza ham yuritilganligini ta’kidlab o‘tish lozim. Mualliflar obyektiv omillar sirasida oilaning maktab bilan, ota-onalarning sinf rahbarlari bilan yaqin munosabatlarini ham sanab o‘tadilar. Falsafiy, pedagogik va psixologik adabiyotlarda ijtimoiy munosabatlarning mohiyatiga ko‘ra subyektiv omillar ekanligiga urg‘u beriladi. Shaxsda ma’lum sifat yoki faoliyat ko‘nikmalarini shakllantirishga o‘z ta’sirini o‘tkazuvchi omillar nihoyatda ko‘p. Shu sababli, bizning fikrimizcha, bolalarda mas’uliyat hissini shakllantirishda ahamiyatli bo‘lgan subyektiv omillar sifatida quyidagilarni keltirib o‘tish maqsadga muvofiqdir:

1) ota-onalar, oilaning yoshi katta a’zolari, bolalarning tarbiyasiga mas’ul bo‘lgan vasiylarning kundalik hayotni yo‘lga qo‘yish, maishiy yoki kasbiy faoliyatni tashkil etishga nisbatan mas’uliyatli munosabatda bo‘lish asosida bolalarga shaxsiy o‘rnak ko‘rsatishlari;

2) bolalarga mas’uliyatli bo‘lishning ahamiyati, ijtimoiy hayotda o‘z o‘rnini topa olishdagi roli, faoliyatda muvaffaqiyatlarga erishish garovi ekanligining tushuntirilib borishi;

3) kichik maktab o'quvchilarining o'z shaxsiy kundalik rejimiga ega bo'lishlari, otionalarning tomonidan o'quvchilarning o'z xatti-harakatlarini muayyan tartib bilan amalga oshirayotganliklari va kundalik rejimga qat'iy rioya etishlarini doimiy nazorat qilib borishlari;

4) oilada va maktabda bolalarni ijtimoiy-foydali mehnatga jalb etgan holda ularga mas'uliyatli topshiriqlarning berib borilishini ta'minlashlari;

5) bolalar bilan topshiriqlarning bajarilish holati va muddati haqida oila va maktab sharoitida suhbatlarning izchil tashkil etilishi asosida o'quvchilarda o'z xatti-harakatlarini baholay olish, unga nisbatan tanqidiy yondashish ko'nikma va malakalariga ega bo'lishlariga erishish;

6) ommaviy axborot vositalari orqali kasbiy faoliyat yoki shaxsiy, kundalik faoliyatga nisbatan mas'uliyatli yondasha olishlari bilan boshqalarga o'rnak bo'la olgan mashhur kishilar haqida hikoya qiluvchi eshittirish, ko'rsatuv yoki maqolalarning berib borilishi, ilmiy, ilmiy-ommabop va badiiy asarlarning chop etilishi;

7) shaxsda mas'uliyat hissini shakllantirishga yordam beruvchi psixologik treninglar, o'yinlar;

8) o'qishda yutuqlarga erishayotgan hamda ta'lim muassasasi, sinfnings ijtimoiy hayotida faol ishtirok etayotgan tengdoshlarining namunasi;

9) fan o'qituvchilarining o'quvchilarda mas'uliyat hissini shakllantirish yo'lida amalga oshirayotgan harakatlari;

10) ta'lim muassasalarida muammoning muvaffaqiyatli yechimini topish borasida qo'lga kiritilgan ilg'or tajribalar va boshqalar.

Oila muhitda bolalar faoliyatiga bevosita pedagogik rahbarlikni olib boruvchi otionalarning o'zlari muammoning mohiyatini chuqur anglay olishlari, ularda mas'uliyat hissini shakllantirishga oid nazariy va amaliy pedagogik-psixologik bilimlarga ega bo'lishlari talab etiladi. Manbalarda o'quvchilarda o'qishga va o'quv vazifalariga mas'uliyat hissini shakllantirishda ota-onalarga quyidagi kriteriyalardan foydalanish tavsiya etiladi:

- o'quvchilar o'qishni jamiyat va oila oldidagi burchi sifatida tushunishlari;
- o'quvchilarni bilim olishdagi, tarbiyadagi va ko'proq narsani bilib olishga intilishlarida, o'rganish va izlanishida, ishlarida, maqsadlarni anglab yetishlari;
- o'quv faoliyatiga va o'zining o'qishdagi majburiyatlariga, faol va ta'sirchan munosabatda bo'lishlari;
- o'quvchilarning o'quv vazifalarini bajarilish natijalaridan tashvishlari va hayajonlanishlari;
- o'quvchining o'quv vazifalarini bajarishdagi intizomlilik, tirishqoqligi, ishchanligi, mustaqilligi, yuzaga kelgan qiyinchiliklarni bartaraf qilishda iroda kuchini namoyon qila olishi;
- o'quv-tarbiya vazifalaridan ma'naviy qoniqish;
- o'quvchini o'zining o'quv faoliyatiga ongli ravishda munosabatda bo'lishi va bu talablarga baho berish nuqtai nazaridan, burch talablariga muvofiq o'zini tahlil qilishi, o'ziga baho berishi va o'zini o'zi nazorat qilishi;
- atrofdegilarning mas'uliyatsizligiga murosasiz bo'lish va o'z faoliyatiga mas'uliyat bilan javob berish uchun tayyorlash qobiliyati" [4].

Yuqoridagi fikrlardan anglanadiki, ota-onalar oila sharoitida o'z farzandlarida mas'uliyat hissini shakllantirishda quyidagi pedagogik bilimlar va ulardan samarali foydalana olish ko'nikmalariga ega bo'lishlari zarur:

- 1) bolalarda mas'uliyat hissini shakllantirishga oila sharoitida kundalik hayotni tashkil etishning muhim qismi sifatida yondashish;
- 2) farzandlarining mas'uliyat hissiga ega bo'lishi ularning shaxsiy hayotda muvaffaqiyatga erishish kafolati ekanligini tushunib yetishlari;
- 3) kundalik hayot (ijtimoiy-oilaviy munosabatlar, atrofdegilar, qarindoshlar bilan aloqada) va kasbiy faoliyatni yo'lga qo'yishda ularga mas'uliyatli yondashishlari, bu borada farzandlarga namuna bo'lishlari;
- 4) maktabgacha ta'lim yoshidanoq bolalarda kiyinish, ovqatlanish hamda o'yinchoqlarni o'ynashda bu jarayonlarga nisbatan jiddiy yondashish, tartibli va intizomli

bo'lish, shuningdek, o'z xatti-harakatini baholashga (bu yaxshi, bu yomon tarzida) odatlantirib borish;

5) maktab yoshiga yetgunga qadar bolalarda dastlabki mehnat ko'nikmalarini shakllantirish, ularda mehnat va mehnat samarasi bo'lgan moddiy ashyolarga nisbatan hurmatni qaror toptirish, mehnat inson faoliyatining asosiy ko'rinishi ekanligi, mehnat qilish insonning har jihatdan kamol topishiga yordam berishi to'g'risidagi tushunchalarni hosil qilib borish;

6) bolalarni hiyobonlar, madaniyat markazlari, bolalar kino-teatrlariga muntazam olib borish asosida ularda jamoat joylarida o'zlarini tutish, o'z xatti-harakatlariga baho berish, o'z-o'zini tanqidiy baholashga odatlantirish, muomala qoidalari bilan tanishish va ularga rioya etish ko'nikmalarini shakllantirish.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Иномова М. Оилада болаларнинг маънавий-ахлоқий тарбияси. – Т.: Низомий номидаги ТДПУ, 1999.

2. Бошланғич таълим фанлари бўйича стандарт текширув ишлари тўплами //Тузувчи-муаллифлар: А.И.Калонтаров ва бошқ. – Т.: Маърифат-мададкор, 2002. – 415 с.

3. Ўқувчиларда ўқув фаолиятига масъулият ҳиссини тарбиялаш (Оилада ва синфдан ташқари вақтларда) //Тузувчилар: М.Ш.Алламуратова, Г.Жўрабоева. – Т.: ЎзПФТИ, 1990.

4. Выготский Л.С. Педагогическая психология /Под ред. В.В.Давыдова. – М.: Педагогика, 1991. – 480 с.

5. Mattiyev, I. B. (2023). PEDAGOGIK JARAYONLARNI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH. *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi*, 2(1), 812-815.

6. Mattiyev, I. B. (2023). PEDAGOGIK JARAYONLARNI TASHKIL ETISH JARAYONIDA REFLEKSIV YONDASHUV. *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi*, 1(2), 816-819.

7. Mattiyev, I. B. (2023). PEDAGOGIK JARAYONLARNI TASHKIL ETISHDA REFLEKSIV YONDASHUVNING SAMARADORLIGI. *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi*, 1(2), 771-774.